

O'QUV DASTUR PASPORTI

*O'quv dastur SSV xuzuridagi Uzluksiz tibbiy – farmasevtik ta'limi*

*Mavofiqlashtiruvchi Kengashda 2024 yil 06 iyuldaggi 1–sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.*

*Qayd raqami: MMO-8-2024*

*Amal qilish muddati 2029 yilgacha*

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra/ bo'lim	Pediatriya			
O'quv dastur nomi	Erta yoshdagagi bolalar kasalliklarini tashxisoti va davolash tamoyillari			
O'qish turi	mavzuyi malaka oshirish			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	t.f.d., dos. Abdujabarova Z.M., T.f.d., prof. Gafarova F.M., T.f.d., dos. Mullaeva L.D., t.f.n., dos. Shaxizirova I.D.. Kadirova F.M.			
Siklning umumiy soati	144 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar	t.f.d., dos. Abdujabarova Z.M., T.f.d., prof. Gafarova F.M., T.f.d., dos. Mullaeva L.D., t.f.n., dos. Shaxizirova I.D.. Kadirova F.M.			
				
Maqsad	Vrachlarlarning professional kompetensiyalarini takomillashtirish asosida, erta yoshli bolalardagi asosiy patologik xolatlarini aniqlash mahoratini oshirish, xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllari, ambulator va statsionar sharoitida kasalliklarni tashxislash va davolash, bemor hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish va yangilashdan iborat.			
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	statsionar, ambulatoriya, sanatoriya- profilaktoriya va boshqa tibbiy Davlat va nodavlat muassasalari pediatrlari, umumiy amaliyot shifokorlari va boshqa tor mutaxasislari			
Sikl vazifalari	Zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishslash ko'nikmalarini shakllantirish; -shifokorlarni isbotlangan tibbiyot asoslariga o'rgatish va uni pediatriya tizimi amaliyatga tadbiq qilish; -bolalar kasalliklarini MKB - 10 ga mos ravishda tashxislashga o'rgatish; -erta yoshidagi bolalarni ratsional ovqatlantirish, ona sutining			

	<p>axamiyati, sog‘lom va kasal bolalarni parvarishlashga o‘rgatish;</p> <p>-bolalar kasalliklarini epidimelogiysi, patogenezi, tashxislash va davolashni zamonaviy bilimlar darajasida o‘rgatish;</p> <p>-zamonaviy labarator va instrumental tekshiruv natijalarini to‘g‘ri baholashga o‘rgatish;</p> <p>-ambulator sharoitda integrirlashgan usulda bolalar kasalliklarini tashxislash va davolashni o‘rgatish;</p> <p>-O‘zSSV 225- buyrug‘iga asosan shoshilinch holatlarda statsionar sharoitda bolalar kasalliklarini tashxislash va shoshilinch davolashni standartlarini o‘rgatish;</p> <p>-axoli o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, bolalarni sog‘lom guruhlarga ajratish, jadval asosida emlashni tashkil qilish, sog‘lom va bemor bolalarni dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishga o‘rgatish;</p> <p>-tibbiyot xodimlarida hayotiy va ilmiy tessavvurni shakillantirishda milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni insonparvarlik mohiyatini ko‘rsatish asosida, tibbiyot xodimlarining qalbi va ongiga singdirish.</p>
Sikl tarkibi	<p>1 modul. Sog‘lijni saqlash tizimida davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirish.</p> <p>2 modul. Erta yoshidagi bolalardagi o‘ziga xos kasalliklar</p> <p>3 modul. Erta yoshidagi bolalar nafas a’zolari kasalliklarini tashxislash va davolashning zamonaviy usullari</p> <p>4 modul. Erta yoshidagi bolalarda yurak kon-tomir tizimi kasalliklarini aniqlashning va davolashning yangi talqini</p> <p>5 modul. Erta yoshidagi bolalar ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari diagnostikasi va davolashda zamonaviy yondashuv</p> <p>6 modul. Erta yoshdagi bolalarda siydik chikarish a’zolari kasalliklarini tashxislash va dvolash</p> <p>7 modul Erta yoshdagi bolalarda allergik kasalliklar va immunodefitsit holatlarni dalillarga asoslangan tibbiyot asosida olib borish</p> <p>8 modul. Bolalarda xavfsiz immunoprofilaktika</p> <p>9 modul. Erta yoshdagi bolalarda shoshilinch holatlar</p> <p>10. modul.Pediatriyada sindromal davolash .</p>
O‘qish bazalari 1. I.Ergashev nomli shahar klinik shifoxonasi 4	<p>2. Bolalar milliy tibbiyot markazi</p> 

**Simulyatsion  
asbob/uskunalar**

